

O‘ZBEKISTONDA YER-SUV MUNOSABATLARINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI: STRATEGIK ISLOHOTLAR VA SAMARADORLIK TAHLILI

Мирзаева Н.Ж.

т.ф.н., доцент, ГулДУ

naziramirzayeva69@rambler.ru

O‘rozova Muxlisa Xusniddin qizi

Guliston davlat universiteti

Tarix yo‘nalishi I-bosqich magistranti

Аннотация. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yer-suv munosabatlarining institutsional transformatsiyasi hamda ushbu jarayonda amalga oshirilgan strategik islohotlar ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda yer va suv resurslarini boshqarish tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishi, agrar siyosatdagi o‘zgarishlar, fermer xo‘jaliklari institutining shakllanishi hamda suv xo‘jaligida boshqaruv tizimining modernizatsiyasi yoritiladi. Shuningdek, amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligi iqtisodiy va ekologik mezonlar asosida baholanib, suv resurslaridan foydalanish darajasi, yer unumdorligi va boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvi tahlil etiladi. Maqolada yer-suv munosabatlarining institutsional rivojlanishidagi muammolar hamda ularni hal etish istiqbollari ham ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar yer-suv munosabatlarini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida shakllantirishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, ushbu tizimni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Калит so‘zlar: yer-suv munosabatlari, institutsional transformatsiya, agrar islohotlar, suv resurslari boshqaruvi, fermer xo‘jaliklari, irrigatsiya tizimi, samaradorlik tahlili, barqaror rivojlanish, suv tejovchi texnologiyalar, davlat siyosati.

Аннотация. В данной статье анализируется институциональная трансформация земельно-водных отношений в Узбекистане в годы независимости, а также стратегические реформы, реализованные в данном процессе. В исследовании рассматривается поэтапное развитие системы управления земельными и водными ресурсами, изменения в аграрной политике, формирование института фермерских хозяйств и модернизация системы управления водным хозяйством. Также проводится оценка эффективности реализованных реформ на основе экономических и экологических показателей, включая уровень использования водных ресурсов, плодородие земель и совершенствование механизмов управления. В статье рассматриваются существующие проблемы институционального развития земельно-водных отношений и перспективы их решения. Результаты исследования показывают, что проведённые в годы независимости реформы способствовали формированию современной системы управления земельно-

водными ресурсами, однако необходимость дальнейшего совершенствования данной системы сохраняется.

Ключевые слова: земельно-водные отношения, институциональная трансформация, аграрные реформы, управление водными ресурсами, фермерские хозяйства, ирригационная система, анализ эффективности, устойчивое развитие, водосберегающие технологии, государственная политика.

Abstract. *This article analyzes the institutional transformation of land and water relations in Uzbekistan during the years of independence, as well as the strategic reforms implemented in this process. The study examines the gradual development of the land and water resource management system, changes in agrarian policy, the formation of the farming sector, and the modernization of water management institutions. It also evaluates the effectiveness of the implemented reforms based on economic and environmental indicators, including water use efficiency, land productivity, and the improvement of governance mechanisms. The article highlights existing challenges in the institutional development of land and water relations and explores prospects for their solution. The results show that the reforms carried out during the years of independence have contributed to the formation of a modern system of land and water management; however, further improvement of this system remains necessary.*

Keywords: *land and water relations, institutional transformation, agrarian reforms, water resource management, farming sector, irrigation system, efficiency analysis, sustainable development, water-saving technologies, public policy.*

KIRISH. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida agrar sektorni isloh qilish jarayoni iqtisodiy transformatsiyaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, yer va suv resurslaridan foydalanish tizimini qayta tashkil etish, uni samarali boshqarish hamda zamonaviy institutsional mexanizmlar asosida rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Chunki mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining yuqori ulushi va sug‘orma dehqonchilikka asoslangan ishlab chiqarish modeli yer-suv munosabatlarini strategik ahamiyatga ega tizimga aylantiradi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda yer-suv munosabatlari faqat tabiiy resurslardan foydalanish jarayoni sifatida emas, balki murakkab institutsional tizim sifatida talqin etiladi. Ushbu tizim doirasida davlat organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, suv foydalanuvchilar va boshqa ishtirokchilar o‘rtasidagi huquqiy, iqtisodiy hamda tashkiliy munosabatlar shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, yer-suv munosabatlarining samaradorligi bevosita ushbu institutlarning qanday tashkil etilgani va o‘zaro qanday ishlashiga bog‘liqdir.

Mustaqillikdan keyingi davrda O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tizimi tubdan o‘zgarishga uchradi. Sobiq markazlashgan boshqaruv modeli o‘rniga bosqichma-bosqich ko‘p subyektli va nisbatan moslashuvchan institutsional tizim shakllantirildi. Xususan, fermer xo‘jaliklari institutining paydo bo‘lishi, suv foydalanuvchilar uyushmalarining tashkil etilishi hamda irrigatsiya tizimlarini boshqarishda yangi tamoyillarning joriy etilishi

ushbu transformatsiyaning muhim tarkibiy qismlaridir. Biroq ushbu o'zgarishlar bilan bir qatorda, tizim samaradorligi va institutsional uyg'unlik masalalari dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayib borishi va ekologik bosimning kuchayishi sharoitida yer-suv munosabatlarini boshqarish masalasi yanada murakkablashmoqda. Ayniqsa, transchegaraviy suv resurslariga bog'liqlik, irrigatsiya tizimlarining eskirganligi va yerlarning degradatsiyasi mavjud boshqaruv tizimining samaradorligini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Shu sababli yer-suv munosabatlarini faqat tarixiy yoki huquqiy jihatdan emas, balki institutsional samaradorlik nuqtai nazaridan tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu muammoni o'rganishda institutsional iqtisodiyot, resurslarni boshqarish nazariyalari hamda integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish (IWRM) konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvlar orqali yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimidagi nomukammalliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi. Mazkur maqolaning maqsadi mustaqillik yillarida O'zbekistonda yer-suv munosabatlarining institutsional transformatsiyasini tahlil qilish, amalga oshirilgan strategik islohotlarning samaradorligini baholash hamda mavjud tizimni takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy asosda aniqlashdan iborat.

NATIJARLAR. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yer-suv munosabatlarining institutsional transformatsiyasi normativ-huquqiy hujjatlar va davlat siyosati orqali bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Ushbu jarayonni tahlil qilishda asosiy e'tibor qabul qilingan qonunlar, farmonlar va ularning amaliy natijalariga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Dastlabki bosqichda yer-suv munosabatlarining huquqiy asoslari shakllantirildi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv va boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik sifatida davlat mulki ekanligi belgilab qo'yildi. Bu norma yer-suv munosabatlarining institutsional asosini belgilab berdi. Keyinchalik 1993-yilda "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi suv resurslarini boshqarishning huquqiy mexanizmlarini shakllantirdi. 1998-yilda qabul qilingan "Yer kodeksi" esa yer munosabatlarini tartibga solishda asosiy hujjat bo'lib, yerga egalik emas, balki undan foydalanish huquqining ustuvorligini belgiladi. Mazkur hujjatlar natijasida yer-suv munosabatlari sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan huquqiy tartibga solinadigan tizimga o'ta boshladi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi asosan sug'oriladigan yerlarda olib boriladi. Sug'oriladigan yerlar umumiy yer maydonining 9,6 foizini tashkil qilib, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 95 foizdan ortig'i shu yerlarda yetishtiriladi. Respublikamiz dehqonchiligi sug'orishga asoslanganligi sababli suv ham yer resursi kabi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida muhimdir. Qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarining xomashyoga, aholining esa oziq-ovqat

mahsulotlariga b'lgan talabi qondirilishida yer va suvning ahamiyati juda katta. Yer va suvdan qanchalik oqilona, samarali foydalanilsa, ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi shunchalik ko'payadi. Natijada yuqorida ta'kidlangan talablarning qondirilish darajasi ortadi.

B. Nazirov va D. Yaqubovalarning fikricha, yerdan foydalanishda uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir: yemning tabiat mahsuli ekanligi. Boshqa asosiy vositalar, ya'ni binolar, inshootlar, kombaynlar, traktorlar va boshqalar inson mehnatining mahsulidir. Zarariyat bo'lganda ular inson tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin, lekin yerni inson yarata olmaydi; yer maydonining cheklanganligi va takror ishlab chiqarilmasligi. Ona zamin tabiatan cheklangan, uning maydonini inson kengaytira olmaydi. Chunki u tabiat mahsuli hisoblanadi. Boshqa asosiy vositalarni, masalan traktorlarni, mashinalarni talabni qondirish maqsadida ko'plab ishlab chiqarish mumkin; yer - qishloq xo'jaligining abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Respublika hududida mavjud bo'lgan yerlardan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda bizdan oldingi avlodlar foydalangan, hozirgi davrda biz foydalanmoqdamiz, kelajakda esa avlodlarimiz foydalanadi. Jamiyat rivojlanishi natijasida ayrim ishlab chiqarish vositalari takomillashtirilishi natijasida o'z o'rnini boshqasiga bo'shatib beradi. Masalan, bir paytlar yemi shudgorlashda qoramollar va omochdan foydalanilgan boisa, keyinchalik fan-texnika taraqqiyoti natijasida qudratli traktorlar va pluglar ularning o'rnini egalladi. Lekin yer qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatida abadiy qolaveradi, chunki uni boshqa vosita bilan almashtirib bo'lmaydi; yerni qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib bo'lmaydi. Yerdan joylashgan o'mida oqilona foydalanish mumkin. Lekin mashina va traktorlarni talab etilgan joyga olib borib, turli xildagi ishlarni amalga oshirish, bino-inshootlarni ham talab etilgan joyga qurish mumkin; yerning yuqori qatlami hisoblangan tuproq unumdorligining mavjudligi. Tuproq unumdorligi tabiiy, sun'iy va iqtisodiy unumdorliklarga bo'linadi. Asrlar davomida tashqi ta'sirlar, ya'ni quyosh nuri, yogingarchilik, chirindilar tushishi va boshqalar ta'sirida shakllangan unumdorlik yemning tabiiy unumdorligi deyiladi. Tuproqning tabiiy unumdorligi - tabiat mahsulidir. U tabiatning ta'siri natijasida uzoq yillar mobaynida shakllanadi. Uning holati quyosh nuri hamda yogingarchilik miqdoriga, shamol va suvlarning ta'siriga bog'liqdir. Ularning ijobiy ta'sirida tuproq tabiiy unumdorligi yaxshi bo'ladi.

2000-yillardan boshlab agrar sohada chuqur institutsional islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi PF-3226-son Farmoni ("Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirish to'g'risida") asosida shirkat xo'jaliklarini tugatish va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish siyosati jadallashdi. Ushbu farmon yer resurslaridan foydalanishda iqtisodiy manfaatdorlikni oshirishga xizmat qildi. Natijada 2008-yilga kelib qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy qismi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kela boshladi. Suv resurslarini boshqarish tizimida ham muhim institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. 2003-yildan boshlab suv foydalanuvchilar uyushmalarining tashkil etilishi suv taqsimoti tizimini markazlashgan

boshqaruvdan qisman mahalliyashtirishga olib keldi. Bu esa nazariy jihatdan resurslardan foydalanishda ishtirokchilik (participatory management) modeliga o'tishni anglatadi. Shu bilan birga, 2007-yil 29-oktabrdagi PQ-718-son qaror asosida "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi" qabul qilinib, 2008-2012-yillarda keng ko'lamli meliorativ tadbirlar amalga oshirildi. Natijada kollektor-drenaj tarmoqlari rekonstruksiya qilinib, ayrim hududlarda sho'rlanish darajasi pasaytirildi. Biroq mazkur islohotlar suvdan foydalanish samaradorligini tubdan oshirishga yetarli darajada ta'sir ko'rsatmadi.

2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yer-suv munosabatlarini boshqarishda yangi bosqich boshlandi. Xususan, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmon bilan "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu strategiyada yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish hamda boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mazkur hujjat institutsional transformatsiyani strategik darajaga olib chiqdi.

So'nggi yillarda suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan, tomchilatib sug'orish tizimlarini joriy etuvchi xo'jaliklarga davlat subsidiyalari ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi. 2020-2023-yillar davomida suv tejoychi texnologiyalar joriy etilgan maydonlar sezilarli darajada kengaydi. Bu esa suv sarfini kamaytirish va hosildorlikni oshirish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ham amaliy qadamlar tashlandi.

Biroq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va amalga oshirilgan islohotlarga qaramay, tizim samaradorligida muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, suv resurslarining transchegaraviy xarakterga ega ekanligi, Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi suv oqimining kamayib borishi hamda iqlim o'zgarishi omillari mavjud tizimga jiddiy bosim o'tkazmoqda. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, sug'oriladigan yerlarning 40-50 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lib, bu hosildorlikning pasayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, institutsional nuqtai nazardan qaraganda, suv xo'jaligi tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv foydalanuvchilar uyushmalari o'rtasidagi vakolat va mas'uliyatlarning aniq chegaralanmaganligi boshqaruv samaradorligini pasaytirmoqda. Ayrim hollarda suv taqsimoti jarayonida shaffoflikning yetarli emasligi va nazorat mexanizmlarining zaifligi ham kuzatiladi. Umuman olganda, mustaqillik yillarida qabul qilingan qonunlar, farmonlar va davlat dasturlari yer-suv munosabatlarini institutsional jihatdan tubdan o'zgartirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, ularning amaliy samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv sifati, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari va ekologik omillarga bog'liq holda shakllanmoqda.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yer-suv munosabatlarining institutsional transformatsiyasi faqat normativ-huquqiy bazani shakllantirish bilan cheklanib qolmay, balki boshqaruv tizimining funksional samaradorligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, 2017-yildan keyingi davrda amalga oshirilgan islohotlar alohida e'tiborga loyiqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-

fevraldagi PF–4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Harakatlar strategiyasi” doirasida agrar sohani modernizatsiya qilish va resurslardan samarali foydalanish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mazkur hujjat yer-suv munosabatlarini boshqarishda tizimli yondashuvni kuchaytirishga xizmat qildi. Unda irrigatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va meliorativ holatni yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Bundan tashqari, 2018-yil 17-apreldagi PQ–3672-son qaror (“Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”) suv resurslarini boshqarishda iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biri bo‘ldi. Ushbu qaror doirasida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, suv yo‘qotishlarini kamaytirish hamda suvni hisobga olish tizimini joriy etish vazifalari belgilandi. Bu esa suv resurslarini boshqarishda ma‘muriy usullardan iqtisodiy yondashuvga o‘tishning muhim bosqichi sifatida baholanadi. Institutsional transformatsiyaning yana bir muhim yo‘nalishi – bu boshqaruv tizimining optimallashtirilishi va markaziy hamda hududiy organlar o‘rtasidagi vakolatlarning qayta taqsimlanishidir. Xususan, suv xo‘jaligi tizimida vazirlik va agentliklar faoliyatining qayta tashkil etilishi boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, institutsional o‘zgarishlar bilan bir qatorda kadrlar salohiyati va boshqaruv madaniyatini rivojlantirish yetarli darajada tez amalga oshirilmayapti.

Yer munosabatlarida ham muhim o‘zgarishlar kuzatildi. So‘nggi yillarda yer ajratish, undan foydalanish va nazorat qilish jarayonlarida shaffoflikni oshirish maqsadida raqamli platformalar joriy etilmoqda. Bu esa korrupsion omillarni kamaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq ayrim hududlarda yer resurslaridan foydalanish samaradorligi pastligicha qolmoqda, bu esa institutsional mexanizmlarning hududlar kesimida bir xil ishlamayotganligini ko‘rsatadi. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yer-suv munosabatlarining samaradorligi faqat huquqiy islohotlarga emas, balki iqtisodiy rag‘batlantirish tizimining mavjudligiga ham bevosita bog‘liqdir. Hozirgi kunda suvdan foydalanish uchun to‘lov tizimi bosqichma-bosqich joriy etilayotgan bo‘lsa-da, u hali to‘liq bozor mexanizmi sifatida shakllanmagan. Natijada suv resurslaridan foydalanishda tejamkorlik darajasi yetarli emas. Bu esa institutsional tizimda iqtisodiy instrumentlarning yetishmasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yer-suv munosabatlarining institutsional rivojlanishida ekologik omillar ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o‘zgarishi natijasida suv resurslarining kamayishi, vegetatsiya davrining o‘zgarishi va ekstremal iqlim hodisalarining ko‘payishi mavjud boshqaruv tizimini yangi sharoitlarga moslashtirishni talab etmoqda. Bu esa an‘anaviy boshqaruv modelidan integratsiyalashgan va moslashuvchan boshqaruv tizimiga o‘tishni zarur etadi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar nuqtai nazaridan qaraganda, O‘zbekistonda yer-suv munosabatlarining institutsional transformatsiyasi hali yakunlangan jarayon emas, balki davom etayotgan evolyutsion jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli kelgusida ushbu tizimni takomillashtirishda integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish (IWRM), raqamli boshqaruv tizimlari va bozor mexanizmlarini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda yer-suv munosabatlari tizimi chuqur institutsional transformatsiyaga uchrab, uning huquqiy, iqtisodiy va boshqaruv asoslari bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va davlat dasturlari natijasida agrar sektorni boshqarishda yangi institutlar shakllanib, yer va suv resurslaridan foydalanish tizimi nisbatan moslashuvchan va ko'p subyektlilik modelga o'ta boshladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amalga oshirilgan islohotlar natijasida yer resurslaridan foydalanishda fermer xo'jaliklari yetakchi subyekt sifatida shakllandi, suv resurslarini boshqarishda esa markazlashgan tizimdan qisman desentralizatsiyalashgan modelga o'tildi. Shu bilan birga, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamli boshqaruv elementlarini tatbiq etish orqali tizim samaradorligini oshirish yo'lida muhim qadamlar qo'yildi. Biroq institutsional transformatsiya jarayonining natijalari bir xil darajada namoyon bo'lmayotgani aniqlanadi. Xususan, suv resurslaridan foydalanish samaradorligi pastligi, sug'orish tizimlarida yuqori yo'qotishlar mavjudligi, yerlarning sho'rlanishi va degradatsiyasi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, boshqaruv tizimida ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasidagi vakolat va mas'uliyatlarning aniq chegaralanmaganligi, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi ham tizim samaradorligini cheklovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, yer-suv munosabatlarining institutsional rivojlanishini baholash shuni ko'rsatadiki, mavjud tizim "islohot qilingan, biroq to'liq optimallashtirilmagan model" sifatida tavsiflanishi mumkin. Ya'ni, normativ-huquqiy baza va institutsional tuzilma shakllangan bo'lsa-da, ularning amaliy samaradorligi hali to'liq darajada ta'minlanmagan. Kelgusida yer-suv munosabatlarini yanada takomillashtirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- suv resurslarini boshqarishda integratsiyalashgan yondashuv (IWRM) tamoyillarini to'liq joriy etish orqali ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni uyg'unlashtirish;
- suvdan foydalanishda iqtisodiy mexanizmlarni kuchaytirish, xususan differensial to'lov tizimlari va rag'batlantirish instrumentlarini joriy etish;
- irrigatsiya va melioratsiya infratuzilmasini kompleks modernizatsiya qilish, suv yo'qotishlarini minimallashtirish;
- yer resurslarining meliorativ holatini yaxshilash va degradatsiya jarayonlarini kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan agrotexnik choralarni kengaytirish;
- yer va suv resurslarini boshqarishda "raqamli texnologiyalar (GIS, remote sensing, smart monitoring)"ni keng joriy etish orqali shaffoflik va nazoratni kuchaytirish;
- institutsional tizimda ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasida vakolat va mas'uliyatlarni aniq belgilash hamda boshqaruv samaradorligini oshirish. Umuman olganda, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan strategik islohotlar O'zbekistonda yer-suv munosabatlarini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida shakllantirishga zamin yaratdi. Biroq global iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayib borishi va ekologik bosim kuchayib

borayotgan sharoitda ushbu tizimni yanada takomillashtirish, uni samarador va barqaror boshqaruv modeliga aylantirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

Istiqlolning dastlabki yillarida respublikamizda amalga oshirilayotgan yer islohotiga asoslangan holda mavjud jamoa xo'jaliklariga davlat mulki hisoblangan yer foydalanish uchun ijaraga berildi. Ular yerdan foydalanganlik uchun belgilangan muddatda ijara haqi to'laydigan bo'lishdi. Ijara haqi 1999-yildan boshlab yagona yer solig'i shaklida tolanadigan bo'ldi. Shu bilan birga

«Mulq to'g'risida»gi qonun talabiga muvofiq u xo'jaliklarda haqiqiy jamoa mulkchiligi tashkil etishga e'tibor berildi. Mulqchilikning bu shakli jamoa xo'jaliklari negizida shirkat xo'jaliklari tashkil etish orqali shakllantirildi. Uning huquqiy asoslari yaratildi. Oliy Majlis tomonidan 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlar) to'g'risida»gi Qonun, uning hayotga tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 229-sonli qarori qabul qilingan edi.

Mamlakatimizda tashkil etilgan shirkat xo'jaliklari dehqonlarning moddiy manfaatdorligini oshirgan bo'lsa-da, bozor munosabatlari talablariga to'liq javob bera olmadi. Ayrim holatlarda esa shirkat xo'jaliklarini tashkil etishda tashkiliy-iqtisodiy tomondan ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Shu sababli mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo'jaligiga samarali, dehqonlarda haqiqiy mulkdorlik hissini uyg'otadigan, ulaming iqtisodiy erkinligini ta'minlaydigan xo'jalik yuritish shakllarini joriy etishga e'tibor qaratildi. Avvalo, dehqonning ishlab chiqarishga va mulkka egalik hissining ortishi, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishi, daromad olishi, uni o'z xohishiga ko'ra mustaqil taqsimlash hamda tasarruf etish imkoniyati yaratildi. Respublika agrar sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari boshqa subyektlarga nisbatan Amaliyotda o'zining bir qancha ijobiy ustunliklarini ko'rsatdi va shu sababli fermer xo'jaliklariga istiqbolli xo'jalik yuritish shakli sifatida juda katta e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 6-oktabrdagi «Fermer xo'jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralari ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etish to'g'risida»gi 3077-sonli Farmo'ri shiga muvofiq fermer xo'jaliklari uchun ajratiladigan yer maydonlari hajmi qayta ko'rib chiqildi. Ushbu tadbirdan so'ng mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari soni 2009-yil holatiga 103081 tani tashkil etmoqda, ularga 3052,9 ming gektar ekin maydoni ajratib berilgan bo'lib, bu jami ekin maydoninig 84,6 foizini tashkil etadi. 2009-yil holatiga ko'ra fermer xo'jaliklarida 1521,6 ming kishi ish bilan band bo'lib, bitta fermer xo'jaligiga o'rtacha 15 kishidan to'g'ri keladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, agrar sektorni rivojlantirish maqsadida aniq va uzoqni ko'zlab ishlab chiqilgan chora-tadbirlar natijasida fermerlar ushbu sohada haqli ravishda yetakchi kuchga aylanib borayapti. Bevosita davlatimiz rahbari tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, yaratilayotgan imkoniyatlar ulami ana shunday ishlashga undayapti, yangi-yangi marralar sari yetaklamoqda.

Yangi O‘zbekiston sharotida mamlakatimizning barcha tumanlarida amalga oshirilayotgan agraklaster tizimi iqtisodiyotimizga munosib hissa qo‘shishi bilan birga qishloq xo‘jaligi mehnatkashlari turmush darajasini ko‘tarilishiga va ularning oilaviy daromadlari oshishiga zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. PF–4947-son Farmon. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 07.02.2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. PF–5853-son Farmon. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida. 23.10.2019.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1993.
6. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1998.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2004.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–3226-son Farmoni. Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirish to‘g‘risida. 24.03.2003.
9. Abdullaev R. O‘zbekistonda agrar islohotlar va ularning natijalari. – Toshkent: Fan, 2015. – 240 b.
10. Tursunov X. Suv resurslarini boshqarish va undan foydalanish samaradorligi. – Toshkent, 2020. – 156 b.
11. Saidov M. Yer-suv munosabatlari va ularning iqtisodiy asoslari. – Toshkent, 2020. – 165 b.
12. Nazirov B., Yaqubova D. O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi. (qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar). – Termiz: “Bekshox print servis” nashriyoti, 2023. – 539 b.
13. Мирзаева, Н. (2011). Русские поселения Мирзачульского оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX–начале XX века. Каталог авторефератов, 1(1), 1-30.
14. Мирзаева, Н. Ж. (2025). XIX АСРНИНГ ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИОН ЖАРАЁНЛАР. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(4), 58-67.
15. Мавлянов, У. Н. (2022). ONTOLOGICAL VIEWS OF ALI SAFI. ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ, (1 (16)).

16. Nasriddinovich, M. U. (2021). ALI SAFIY AXLOQ QOIDALARIGA AMAL QILISHNING ANAMIYATI HAQIDA. PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL,(1)

17. Мирзаева, Н. Ж. (2025). XIX АСРНИНГ ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИОН ЖАРАЁНЛАР. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(4), 58-67.